

## **INTERNET MATNLARIDA TAQIQNING IFODALANISHI**

Maqsudova Feruzaxon Jo‘ravoy qizi

Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Internetning kashf etilishi insoniyat hayotida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Dunyo aholisining katta qismi internet tarmog'iga ulangan. Jumladan, O'zbekistonda ham aholining katta qismi internetdan foydalanadi va bu raqam yildan yilga o'sib bormoqda.

Insonlar internetdan turli maqsadlarda foydalanadilar: yangiliklar o'qish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabi, asosan, ko'ngilochar maqsadlarda foydalanadi. Lekin internet insonlarga taqdim etadigan qulaylik va foydalar faqat bulardan iborat emas. Masalan, oddiy elektron pochta (email) xizmatini oladigan bo'lsak, sanoqli soniyalar necha soniya ichida maktub yozib, uni komputer yoki telefonimizdagi bitta tugmani bosish orqali dunyoning istalgan joyiga bir zumda yuborishimiz mumkin. Buning uchun avvallari an'anaviy pochta yoki telegraf xizmatharidan foydalanilgan. Bundan tashqari hozir uyda o'tirib, internet orqali istagan narsangizni sotib olishimiz va uyimizgacha olib kelib berishlarini buyurtma qilishimiz mumkin.

Internet faqat oddiy foydalanuvchilar tomonidan emas, balki xususiy va davlat kompaniyalari tomonidan ham keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda deyarli barcha yirik kompaniyalar o'z xodimlari va mijozlari haqidagi ma'lumotlarni, ular bilan aloqalarni to'liq internet orqali olib boradi. Ishlab chiqarilgan yangi mahsulotlarni internet orqali ommaga taqdim etadi, sotadi va boshqa turli xizmatlar ko'rsatadi. Internet davlat idoralari, hukumat ishlarini ham osonlashtirgan. Fuqarolarning deyarli barcha murojaatlari ko'p davlatlarda, xususan, yurtimizda ham hozir elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Bu esa ortiqcha qog'ozbozlik, fuqarolarning idoraga borib rasmiylar bilan yuzma-yuz ko'rinishi, navbat kutib uzoq o'tirishi kabi noqulayliklarni kamaytiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan qulayliklar, imkoniyatlar internetdan foydalanishning cheksiz, cheklovsiz ekanligini anglatmaydi, albatta. Biz foydalanayotga ijtimoiy tarmoqlarda ham ma'lum man etilgan birliklar, taqiqlangan saytlar mavjud. Taqiq haqida so'z borar ekan, uning alohida nutqiy janr sifatida internet tarmog'ida matnlarda ifodalanishini ikki xil ko'rinishda ekanligini, shundanga mos ravishda uni ifodalovchi vositalar ham turlicha ekanligini ta'kidlash joiz.

1. Verbal vositalar .

## 2. Noverbal vositalar.

Bugungi kunda internet muloqoti muloqotning eng keng tarqalgan turi sifatida ahamiyatlidir. Ushbu jarayonda xohlaymizmi yo'qmi kundalik maishiy muloqot paytida turli noverbal vositalar – tasvirlar, fotosuratlar, audio va video elementlariga duch kelamiz, foydalanamiz. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy muloqot samaradorligini oshiruvchi paralingvistik vositalar tobora ommalashmoqda, shu bilan birga, muloqot samaradorligini ta'minlovchi shakllarning turlari ko'paymoqda.

Paralingvistika nutqiy muloqotga ovoz tembri, intonatsiya, yo'tal, imo-ishora, gapirish uslubi kabi vositalar yordamida uzatilayotgan ma'lumot muayyan ma'noda to'ldiradigan hodisalarini o'rghanadi. Qabul qiluvchining belgilar ifodasiga reaksiyasini o'rghanish jihatidan pragmatikaga yaqin turadi. Paralingvistika obyekti turlicha tushuniladi. Tor ma'noda u talaffuz bilan birga keladigan tovush hodisalarini o'z ichiga oladi; keng ma'noda og'zaki nutq (faqatgina tovushga oid bo'lishi shart emas) bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi. Paralingvistika umuman nutqiy faoliyatga hamroh bo'lgan har qanday hodisa – tovush, grafik, kinetik va boshqalarini o'z ichiga oladi. 1

Internet diskursining hali tavsiflanmagan jihatlarini o'rghanish, xususan, taqiq nutqiy janrini internet matnlaridagi ifodalanish jarayonlarini yoritish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy tarmoqlarda taqiqning noverbal vositalar orqali ifodalanishini Facebook, Twitter, Instagram, Telegramm kabi bugungi kunda muloqoning eng qulay vositalari, ya'ni ommaviy axborot almashinishing asosiy vositalarida faol qo'llaniladigan noverbal birliklar orqali ko'rib chiqamiz.

👉 - Ushbu belgi biror bir harakatga nisbatan taqiqni bildiradi ."To'xta", "To'xta" so'zlarining noverbal shakldagi ifodasi sanaladi.

👀 - Bu esa ovozga nibatan taqiqni ifodalovchi belgi. "Jim bo'lmoq" fe'lining ifodasi.

😊 – mazkur belgi ham ijtimoiy tarmoqda faol qo'llanuvchi smile bo'lib, "gapirmaslik" kerakligi haqidagi hukmni noverbal tarzda ifodalaydi.

👩‍🦰👩‍🦳 - ushbu belgilar ham turli vaziyatlarda taqiqlash harakati sifatida ishlataladi.

1 <http://philosophy.niv.ru/doc/encyclopedia/philosophy>

18 – bu belgi ayrim sayt va undagi ma'lumotlar 18 yoshdan yuqori bo'lgan foydalanuvchilar uchun ekanligi haqidagi fikr ifodalash bilan birga 18 yoshga to'limganlar foydalanishi taqiqlanadi degan hukmni ham anglatadi.

X - har qanday taqiqni, man etilganlik holatini, mumkin emaslik belgisi sifatida ifodalash uchun ishlatiladi.

Muloqot jarayonida yuqoridagi kabi nolisoniy vositalarni faol qo'llash orqali ko'proq va kengroq mazmunni ifodalash, fikr almashishda vaqt va energiyani tejash jarayonni osonlashtiradi. Lisoniy birlıklarning ta'sir kuchini oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Омонтурдиев А. Омонтурдиев Ж. Сўзқўллаш санъати.- Термиз :Жайхун,1994,60 Б.
- 2.Saidxonov М."O'zbek tilida ishoralaning verballahuvi va matniy xususiyatlari",fil.fan.doktori(DSc) diss. Andijon,2022
- 3.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.